

UDK:330.115:378(5751)

### OLIV TA‘LIM TIZIMIDA O‘QUV JARAYONLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI

**Saydullayeva Saodat Abdumajidovna**

*Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va  
texnologiyalar universiteti, katta o‘qituvchi  
e-mail: s.saydullayeva@tift.uz*

#### ANNOTATSIYA

Maqolada, oliy ta‘lim tizimida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirishni iqtisodiy-statistik usullarda ilmiy tadqiq etish, jarayonni ekonometrik modellashtirish va ko‘p omilli prognozlash variantlarini ishlab chiqish hamda oliy ta‘lim tizimida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirishga ta‘sir etuvchi omillarni baholashda ko‘p omilli ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** oliy ta‘lim tizimi, samaradorlik ko‘rsatkichlari, determinant, oliy ta‘limning rivojlanish ko‘rsatkichlari, ekonometrik modellashtirish, model, prognoz.

#### ANNOTATSIYA

В статье представлены научные исследования по повышению эффективности образовательных процессов в системе высшего образования с использованием экономико-статистических методов, эконометрического моделирования процесса и разработки вариантов многофакторного прогнозирования, а также факторов, влияющих на повышение эффективности образовательного процесса. В рамках оценки разработаны многофакторные эконометрические модели.

**Ключевые слова:** система высшего образования, показатели эффективности, определитель, показатели развития высшего образования, эконометрическое моделирование, модель, прогноз.

#### ABSTRACT

The article presents scientific research on improving the efficiency of educational processes in the higher education system using economic and statistical methods, econometric modeling of the process and the development of multifactor forecasting options, as well as factors influencing the increase in the

efficiency of the educational process. As part of the assessment, multifactor econometric models were developed.

**Key words:** higher education system, performance indicators, determinant, indicators of development of higher education, econometric modeling, model, forecast.

## **KIRISH**

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholining barqaror turmush farovonligini ta'minlash uchun oliy ta'lim qamrovini hamda samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalasi sirasiga kiradi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bizgacha bo'lgan ko'plab bir qator tadqiqotlar "xarajat"ni hisoblashga, ya'ni oliy ta'limning shaxs va umuman davlat rivojlanishidagi ishtirokining miqdoriy yoki pul ifodasiga bag'ishlangan.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Oliy ta'lim tizimi faoliyatining fundamental oliy ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish tadqiqotlari bo'yicha taniqli xorijiy olimlar, jumladan G.S.Becker, C.A.Human[1], N.V.Varghese, L.Buchert[2], O.O.Gokun[3], P.Klaus[4], J.Z.Sonmez[5], O.Shlikova[6] va boshqalar nazariy tadqiqot olib borganlar.

Oliy ta'limni rivojlantirish, qobiliyatga asoslangan holda inson kapitalini boshqarish muammolari, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda o'quv faoliyati natijalarini aniqlash masalalari bo'yicha mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlaridan O.L.Chulanova[7], L.I.Galkiv[8], Ye.N.Jilsov[9], A.I.Kovalev[10], G.V.Prisenko[11], O.Abashkina[12], D.S.Cherneyko[13], M.V.Korotkaya, Ye.D.Popova, G.K.Selevko[14]larning ilmiy ishlaridan o'rganish mumkin.

Ta'lim tizimida xizmatlar va innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish muammolari bo'yicha mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, E.Imamov[15], Z.B.Qo'ziev[16], R.J.Ishmuhamedov[17], X.Abdukarimov[18], N.Zaripova[19], A.X.Eshboev[20], A.S.Kucharov[21], B.D.Kalmetov[22], M.Tojiev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov[23] va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida ilmiy yondoshuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tanlanma, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va aniqlangan model yordamida prognozlash usullardan foydalanilgan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Jahon ta'lim xizmatlari bozori 2021 yildagi 288,52 mlrd. dollardan 2022 yilda 590,74 mlrd. dollarni tashkil qildi va 2023 yilda bu ko'rsatkich 613,88

mlrd. dollarni tashkil etishi kutilib, yillik o'sish sur'ati (CAGR) 3,9%ni tashkil qiladi. Ta'lim binolari bozori 2027 yilda CAGR 2,6%da 679,80 mlrd. dollarga yetishi kutilmoqda[24]. Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, hozirgi kunda butun dunyo miqyosida ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, ta'lim xizmatlari bozorini o'rganish bo'yicha joriy va kelajakdagi ssenariylarini chuqur tahlil qilishni taqazo etadi.

Bundan tashqari, 2009 yildan 2019 yilgacha global ta'lim xarajatlari har yili real ko'rinishda 2,6%ga o'sdi[25]. Bu o'sish sur'ati global iqtisodiy o'sish sur'atlaridan sekinroq va ikki xil tendensiyani yashiradi. Jahon ta'lim xarajatlarining taxminan uchdan ikki qismini tashkil etuvchi yuqori daromadli mamlakatlar faqatgina 5ta global ta'lim xarajatlari hukumatlar, uy xo'jaliklari va donorlar tomonidan ta'lim xizmatlariga sarflangan xarajatlarni bildiradi va YUNESKO Statistika Instituti ta'riflariga amal qiladi.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, so'ngi 10 yil davomida ularning xarajatlarini biroz oshirdi. Ta'limning "qimmatroq" xarajatlari tendensiyasi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarda ko'proq seziladi – iqtisodiy daromadning 10,9%, o'rtacha darajasi – 10,7%, yuqori darajasi – 7,4%. Ta'limning makro darajada ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, eng rivojlangan mamlakatlarda bilim va ta'lim darajasining oshishi hisobiga milliy daromadning 60%gacha o'sishi kuzatilmoqda. Ya'ni, jismoniy shaxslar uchun ta'lim bandlik, daromad, sog'liq va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi. Jamiyat uchun bu uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, institutlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantiradi[26].


Ushbu tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, aholining umumiy ta'lim darajasini oshirish ko'rinishidagi ijtimoiy samaradan tashqari, ta'lim va oliy ta'lim davlat taraqqiyotiga Yalpi ichki mahsulotning o'sishi shaklida ham iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim iqtisodiy faoliyatning alohida turi ekanligini hisobga olsak, uning samaradorligini boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda baholash va ta'lim jarayonini tashkil etishda jalb qilingan resurslarning optimal nisbati shaxsiy dolzarblik kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida vaqtning har qanday nuqtasida, mintaqaviy tizimni rivojlantirishda ta'lim tizimini isloh qilish, uning istiqbolini belgilash va raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlarining asosiy yetkazib beruvchilari ta'lim bozorida taklif yaratadigan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridir. Ta'lim oladigan va ta'lim xizmatlariga haq to'layotgan shaxslar talabni keltirib chiqaradi. Hukumat ushbu zanjirning asosiy elementi bo'lib qolmoqda[27]. Dunyo miqyosida ta'lim muassasalari ta'lim marketingi xizmatlarini o'zlashtirmoqda. Buning sababi shundaki, ta'lim muassasalari xalqaro talabalarni jalb qilish va yollash, sifatni oshirish tashabbuslari bilan bir qatorda muammolarga duch kelishmoqda. Aksariyat muassasalarda budget bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, ular texnik yechimlarni tanlashni cheklaydi[28].

Shuning uchun ta'lim bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, muammo keltirib chiqaruvchi jarayonlarni oldindan ko'ra bilish, oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan tegishli boshqaruv qarorlari bilan tartibga solinadigan modellarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholining barqaror turmush farovonligini ta'minlash uchun oliy ta'lim qamrovini hamda samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalasi sirasiga kiradi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bizgacha bo'lgan ko'plab bir qator tadqiqotlar "xarajat"ni hisoblashga, ya'ni oliy ta'limning shaxs va umuman davlat rivojlanishidagi ishtirokining miqdoriy yoki pul ifodasiga bag'ishlangan. Ta'lim oluvchilarning mikro-darajali yoki individual foydasiga kelsak, tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir qo'shimcha akademik ta'lim yili individual ta'lim daromadini 10% ga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining mavzu doirasida keltirilgan 2010-2022 yillar davomidagi ma'lumotlaridan foydalangan holda ta'lim samaradorligi dinamikasini tahlil qilamiz 1-rasmdagi ma'lumotlarga asosan, biz iqtisodiy faoliyat turi sifatida ta'lim samaradorligining to'liq dinamikasi haqida xulosa chiqaramiz.



**1-rasm. 2010-2022 yillar davomida ta'lim samaradorligi dinamikasi[29]**

Xususan, 2015-2020-yillarda ko'rsatkichning 2,2 barobarga yaqin keskin o'sishi kuzatilgan bo'lsa, 2020-2021-yillarda 0,500535ga o'sdi, keyingi uch yilda 2022-yilgacha yana 0,792966ga o'sdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim samaradorligi koeffitsiyenti 2010-2016 yillar oralig'ida o'rtacha 0,84286ni tashkil etib 7 yil davomida deyarli o'zgarmadi va 2016 yildagi 0,87049dan 1,752974ga oshib, 2022 yilda 2,62346702ga yetdi. Ya'ni, ta'lim Yalpi ichki mahsulot shakllanishida muhim omil bo'lib, samaradorlik ko'rsatkichlari iqtisodiy faoliyatning ayrim turlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichlardan biriga ega bo'ldi.

["O'zbekiston statistika axborotnomasi"](#)

Tahlil natijalariga ko'ra, samaradorlik ko'rsatkichlari Oliy ta'lim tizimining tarkibiy qismidir. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash orqali ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojiga xizmat qiladi. Oliy ta'lim samaradorligi tashqi (inson kapitalining qaytishi) va ichki (iqtisodiy faoliyat turi sifatida) bilan o'lchanadi. Ichki samaradorlik mezonlari samaradorlik (aholining bilim darajasining o'sish sur'ati) va optimallik (iqtisodiy faoliyat turiga jalb qilingan resurslarning oqilona nisbati) hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining Milliy reytingi bo'yicha natijalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Bu 2017 yildan boshlab har yili Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Albatta, jadvalda keltirilgan reyting ko'rsatkichlarini berilishi ko'plab Oliy o'quv yurtlarida yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun o'z faoliyatlarini faollashtirishga yordam berdi va buning natijasida oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra: ilmiy salohiyat so'nggi besh yilda o'rtacha 6,1%ga oshdi: 2017 yil – 30,3%, 2018 yil – 34,0%, 2019 yil – 34,1%; 2020 yil – 34,5%; 2021 yil – 36,4%ga yetdi. Ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati jonlandi va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olgan daromadlari 2017 yildagi 49,7 mlrd. so'mdan 5 barobarga oshib 2021 yilda 236,1 mlrd. so'mga yetdi (1-jadval).

## 1-jadval

### Oliy ta'lim muassasalarining reyting natijalari[6]

T/r	Oliy ta'lim muassasasining nomi	Jami ballga nisbatan foiz hisobida	IF* (40%)	O'S* (30%)	TB* (30%)
1	O'zbekiston milliy universiteti	69.02	31.38	16.54	21.1
2	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti	68.96	24.12	18.5	26.34
3	Samarqand davlat universiteti	52.89	19.07	8.65	25.18
4	Toshkent axborot texnologiyalar universiteti	52.68	16.31	11.64	24.74
5	Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti	51.63	12.01	15.04	24.58
6	Toshkent davlat agrar universiteti	51.58	15.85	11.74	23.98
7	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	51.57	17.93	11.24	22.41
8	Toshkent davlat stomatologiya instituti	50.6	17.07	13.03	20.49
9	Toshkent moliya instituti	50.43	14.22	14.8	21.41
10	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti	49.11	13.57	16.23	19.3



Albatta, bunday ijobiy o‘shish ko‘rsatkichlari milliy oliy ta‘lim muassasalarimizning xalqaro reytingdagi o‘rniga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ularning natijalari yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston milliy universiteti QSning «Matematika» sohasida erishgan natijalariga ko‘ra reytingida dunyoning kuchli 500 talik universitetlar qatoridan o‘rin oldi. Ammo, ta‘kidlash joizki, ushbu oliy ta‘lim muassasalarining Milliy reytingi bo‘yicha natijalar Oliy ta‘lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichini to‘liq namoyon qila olmaydi.

Tadqiqot ishida Oliy ta‘lim tizimi samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy me‘yor metodi asosida baholaymiz. Uning mohiyati oliy ta‘lim tizimining rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarning o‘zgarish sur‘atlarini va ularning o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlarini taqqoslashdan iborat. Shunga ko‘ra, oliy ta‘lim tizimi quyidagi hollarda samarali rivojlanadi:

- oliy ta‘lim muassasalari sonining o‘shish sur‘ati talabalar sonining o‘shish sur‘atlaridan past bo‘lmasa;

- o‘qituvchilar sonining o‘shish sur‘ati ularning malakasini oshirish bilan bir vaqtda oliy ta‘lim muassasalari sonining o‘shish sur‘atlaridan past bo‘lmasligi;

- oliy ta‘lim uchun jamlanma budget xarajatlarining o‘shish sur‘ati ta‘lim tizimining boshqa tarkibiy qismlarining o‘shish sur‘atlaridan ortda qolmasligi, bu tengsizlik bilan ifodalanishi mumkin. Oliy ta‘limning rivojlanish ko‘rsatkichlarini tengsizlik shartlarini bajarish nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz (2-jadval).

## 2-jadval

### O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni rivojlantirish ko‘rsatkichlari[29]

Yillar	Oliy ta‘lim uchun budget xarajatlari			Oliy ta‘lim muassasasining to‘liq shtatdagi xodimlari soni			Oliy ta‘lim muassasalari soni			Oliy ta‘lim muassasalari talabalar soni	
	Mlrd. so‘m.			birlik			birlik			birlik	
2010	5539,4	101,2	≥	23021	95	≤	66	98,5	≥	274520	96,8
2011	6447,7	117,8	≥	22394	92,4	≤	65	97,0	≥	253026	89,2
2012	8356,4	131,2	≥	22769	101,3	≥	64	97,9	≤	258343	100,8
2013	9265,1	118,1	≥	23148	100,9	=	66	100,9	≥	259290	99,0
2014	10173,8	121,0	≥	23532	101,4	=	68	101,4	≥	261332	98,9
2015	12162,2	122,3	≥	24909	99,6	≥	69	86,7	≤	264291	86,9
2016	13831,7	107,5	≥	23961	85,8	≤	70	102,5	≥	268281	98,9
2017	15979,6	126,3	≥	25107	103,3	=	72	103,3	≤	297689	110,3
2018	20721,1	147,4	≥	26664	104,3	≤	98	137,6	≥	360204	113,7
2019	33536,1	178,4	≥	30559	110,9	≤	119	120,5	≥	440991	115,6
2020	29961,1	101,8	≥	32070	107,8	≥	127	101,7	≤	571512	120,7
2021	39640,8	153,6	≥	37364	115,2	≥	154	123,9	≥	808439	100,6
Mos kelmaydiganlar soni	0					7			8		

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirish ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2010-2021 yillar davomida oliy ta’limni moliyalashtirishdan tashqari deyarli barcha ko‘rsatkichlar notekis o‘shish sur‘atlarida ekanini ko‘rsatdi. Tahlil qilinayotgan davrda yuqorida belgilangan tengsizlikni qanoatlantirilishi atigi uch marta 2012, 2015 va 2020 yillarda kuzatildi. Biroq oliy ta’limga xarajatlarning o‘shish sur‘ati har doim oliy ta’lim muassasalarining to‘liq shtatdagi xodimlari sonining o‘shish sur‘atlaridan yuqori bo‘lgan. 2018-2019 yillarda ta’lim muassasalari sonining o‘shish sur‘ati o‘qituvchilar sonining o‘shish sur‘atlaridan kichik bo‘lganligi kuzatilgan bo‘lsa, 2020-2021 yillarda aksincha holat kuzatildi. Bu to‘liq stavkadagi o‘qituvchilar sonining doimiy ravishda to‘liq bo‘lmagan o‘qituvchilar foydasiga qisqarishi bilan bog‘liq.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirishning maqsadi va rivojlantirish strategiyalariga ko‘ra, asosiy boshqaruv usullari boshqaruv qarorlarini tayyorlash hamda tasdiqlash, tashkil etish, amalga oshirilishini nazorat qilish uchun texnika va tartiblar majmuasidir. An’anaviy ma’noda ta’lim jarayonini boshqarish davlat darajasida amalga oshiriladi. Biroq, bugungi globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi davlatning qo‘llab-quvvatlashiga to‘liq tayana olmaydi chunki, doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda inqirozni oldini olish, raqobatbardoshligini oshirish amaliyotini ishlab chiqish uchun ko‘proq avtonom bo‘lishga majbur.

Xulosa qilib aytganda, bajarilgan tadqiqotda iqtisodiy faoliyat turi sifatida oliy ta’limning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi baholanadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy faoliyat turi sifatida ta’lim boshqa iqtisodiy faoliyat turlariga nisbatan yuqori samaradorlik indeksiga ega bo‘lib, 2010-2021 yillarda 67,1% dan 74,5% gacha bo‘lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy me’yoriy metod asosida oliy ta’lim tizimi samaradorligini tahlil qilish resurslarning moliyalashtirish hajmiga, o‘qituvchilar soniga, oliy ta’lim muassasalari soniga va talabalar soniga nisbatida nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Oliy ta’lim rivojlanishining barcha ko‘rsatkichlari salbiy o‘shish sur‘atiga ega. Oliy ta’lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy normasining o‘zgarishiga eng katta ta’sir bir talabaga to‘g‘ri keladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Becker G.S. Human C.A. Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. National Bureau of Economic Research, General Series. Published by National Bureau of Economic Research, Distributed by Columbia University Press. New York and London, 2015. 265 p.
2. Varghese N.V., Buchert L. Financing education: Redesigning national strategies and the global aid architecture. A report from the IWGE. – UNESCO: International Institute for Education Planning, 2011. 208 p.

3. Gokun O.O. Basics of information technologies of education. / O.O. Gokun, M.I. Zhaldak, Yu.I. Mashbyts and others. - Kryvyi Rih: Publishing Department of the KDPU. - 2001. - 210 p.
4. Klaus P. The hard truth about soft skills: Workplace Lessons Smart People Wish They'd Learned Sooner / P. Klaus. – New York : Harper Collins Publishers, 2007. -190 p.
5. Sonmez J.Z. Soft Skills: The Software Developer's Life Manual. – Shelter Island, New York: Manning Publications Co., 2014. – 470 p.
6. Shlikova O. Multimedia culture: help for studies university of culture of multimedia: Textbook. Manual for study. Universities M.: Far-Press. 2004. -231 p.
7. Чуланова О.Л. Управление персоналом на основе компетенций. Монография / О.Л. Чуланова. – М. : ИНФРА-М, 2017. – 122 с. – Режим доступа: <http://www.znaniium.com>][www.dx.doi.org/10.12737/3433](http://www.dx.doi.org/10.12737/3433).
8. Галкив Л.И. Отсынка трат людского капитала: теория, методология, практика. Монография. Львов: ИРД НАН Украины, 2011. -444 с.
9. Жильцов Е.Н. Основы формирования хозяйственного механизма в сфере услуг / Е.Н. Жильцов – М.: Изд-во МГУ, 2011. -231 с.
10. Ковалев А.И., Ивашкевич Т.В., Ковалев В.А., Фрик О.В. Сфера образовательных услуг: маркетинговые стратегии: монография. Hamburg, 2014. 219 с.
11. Присенко Г.В. Прогнозирование социально-экономических процессов: Учеб. пособие. / Присенко Г.В., Равикович Е.И. – К.: КНЭУ, 2005. – 378 с.
12. Абашкина О. Softskills: ключ к карьере / О.Абашкина. – Режим доступа: <http://www.pro-personal.ru/journal/303/7811>.
13. Чернейко Д.С. Прогноз воспроизводства человеческого капитала [Электронный ресурс] / Д.С. Чернейко // Режим доступа: URL:[http://www.chelt.ru/2001/3/cherneiko\\_3.html](http://www.chelt.ru/2001/3/cherneiko_3.html).
14. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 2008. – с.132.
15. А.Вахабов, Э.Имамов, Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. - М.: 2007. -214 с.
16. З.Б. Қўзиев Таълим тизимида хизматлар ва тадбиркорлик фаолияти самарадорлигини ошириш: и.ф.ф.д (PhD) дисс. Автореферати. – Самарканд, 2020 й.
17. Р.Ж.Ишмухамедов Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Тошкент, 2006. С.80.
18. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования. – М., 2008. С. 30.
19. N.Zaripova Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining muhim omili (An'anaviy XIII –



Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami). – Samarqand, 2016-y. 17-b.

20. А.Х.Эшбоев Бозор муносабатларига ўтиш даврида таълим тизимининг миллий иқтисодий ривожлантиришга таъсири: и.ф.н. ...дис. автореферати. – Т.: 2008. - 25 б.

21. А.С.Кучаров Тадбиркорлик соҳаси учун олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашда бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий омилларини такомиллаштириш: и.ф.д. ...дис. автореферати. - Т.: 2006. – 40 б.;

22. Кальметов Б.Д. Образовательный комплекс в рыночной экономике – Т.: Адолат, 2003. – Б.47.

23. Ўқитувчи фаолиятини лойиҳалаш: // Узлуксиз таълимда модулли технология // Монография. М.Тожиев, Б.Зиёмухамедов, Б.Ш.Усмонов, А.Ж.Хуррамов; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги хузуридаги Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг ривожлантириш маркази. – Т.: «TURON-IQBOL», 2017. – 256 б.

24. Education Buildings Global Market Report 2023.  
[https://www.researchandmarkets.com/reports/5807106/education-buildings-global-market-report?utm\\_source=GNE&utm\\_medium=PressRelease&utm\\_wth&utm\\_exec=jamu273prd](https://www.researchandmarkets.com/reports/5807106/education-buildings-global-market-report?utm_source=GNE&utm_medium=PressRelease&utm_wth&utm_exec=jamu273prd)

25. EDUCATION FINANCE WATCH 2021.  
[https://thedocs.worldbank.org/en/doc/507681613998942297-0090022021/original/EFWR report 2021219.pdf](https://thedocs.worldbank.org/en/doc/507681613998942297-0090022021/original/EFWR%20report%202021219.pdf)

26. THE WORLD BANK  
<https://www.worldbank.org/en/topic/education/overview>

27. Higher Education Market Outlook 2023-2028: Size, Share, Trends, Growth, Top Drivers, and Forecast Report. [inkedin.com/pulse/higher-education-market-outlook-2023-2028-size-share-trends-agarwal](https://www.linkedin.com/pulse/higher-education-market-outlook-2023-2028-size-share-trends-agarwal)

28. Education Marketing Services Market-Global Trends and Forecasts by Technavio. [Cation-Marketing-Services-Market-Global-Trends-and-Forecasts-by-Technavio](https://www.technavio.com/industry-analysis/education-marketing-services-market-global-trends-and-forecasts-by-technavio)

29. Muallif ishlanmasi.